

O'ZBEK XONLIKLARINING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISHI

Odilov Alisher Farhod o'g'li

AIFU Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)

magistratura 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVI asr boshlarida Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarining tashkil topishiga sabab bo'lgan omillar, ularning ichki tuzilishi, boshqaruv tizimi va asosiy hukmdorlari haqida batafsil ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, maqolada xonliklarning iqtisodiy hayoti, savdo yo'llari va madaniy taraqqiyoti ham o'rganilib, ularning XX asr boshlarigacha bo'lgan tarixiy jarayonlardagi o'rni tahlil qilinadi. Maqola tarixiy manbalar va tadqiqotlar asosida yozilgan bo'lib, O'zbek xonliklarining o'ziga xos jihatlarini tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: O'zbek xonliklari, Buxoro xonligi, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi, siyosiy tuzilish, iqtisodiy rivojlanish, madaniyat, tarix.

Vatanimiz tarixi o'zbek davlatchiligi taraqqiyoti bir tekisda o'tma-ganligi, uning rivojida zafarli va inqirozli davrlar bo'lganidan guvohlik beradi. Sohibqiron Amir Temur asos solgan saltanat eng yirik va qudratli davlat bo'lganligi jahonga ma'lum. U o'z vorislariga nafaqat qudratli davlatni, shuningdek, saltanat qurish va davlatni boshqarish qonun-qoidalari bayon etilgan mashhur tuzuklarni qoldirgan edi: «...farzandlarim va avlodimdan bo'lganlarning har biri» – deb yozgan edi u o'zining tuzuklarida –, unga muvofiq ish yuritilgan. Bu tuzuklardan o'z saltanat ishlarini boshqarishda qo'llanma sifatida foydalanganlar, tokimendan ularga yetadigan davlat va saltanat zararu tanazzuldan omon bo'lgan. Ammo Amir Temur uning dasturi va vasiyatlariga amal qilishmadi. Taxt, hokimiyat ilinjida avj olgan o'zaro va ichki kurash, jang-u jadallar davlatni zaiflashtirib, mamlakatni inqirozga va parokandalikka olib keldi. Oqibatda Turkiston uch xonlikka bo'linib ketdi.

XVI asr boshlarida zaiflashib borayotgan temuriylar saltanatiga Dashti Qipchoq hukmdori Muhammad Shohbaxt Shayboniy hujumi boshlandi. Shayboniyxon 1500–1501-yillarda Samarqand va Buxoroni, 1504-yilda Farg'ona va Hisor viloyatini, 1505-yillarda Urganchni, 1506–1507-yillarda Xuroson poytaxti Hirot hamda Balxni, shuningdek, Marv, Astrobod va Nishopur shaharlarini zabt etdi. Toshkent, Farg'ona, Sirdaryo va Xorazm yerlari, Afg'onistonning Qandahor, Zamindovur viloyatlari egallandi va Muhammad Shayboniyxonga qaram bo'lib qoldi. Xuroson daligidan foydalangan qozoq sultonlari Movaroun nahrga bir necha marta bostirib kirib, unitalon-taroj qiladilar. 1508–1509-yillarda Shayboniyxon Xurosondan qaytib kelib, qozoq sultonlariga zarba beradi va Dashti Qipchoq ichkarisiga quvib boradi. Bu

yurishlar nati ja sida Sig'noq, Yassi, Sabron shaharlari qayta qo'lga kiritiladi. Shun day qilib, Movarounnahr va Xuroson birlashtirildi va Shaybo-niylar sulolasi hukmronligi qaror top di. Muhammad Shayboniyxon «Imom uz-zamon, xalifat ur-rahmon» unvonini olib, o'z qo'lida dunyoviy va diniy hokim iyatni birlashtirdi. Shayboniyxon janubda Eronning ichki viloyatlariga yurish qila-di. Mash had va Tus shaharlarini egallab orqaga qaytadi. Eron shohi Ismoil Safaviy katta qo'shin bilan yetib keladi. Shayboniyxon Movarounnahrda yordamchi qo'shinlar kelishini kutmasdan jangga kirishga majbur bo'ladi. 1510-yilda Marv yaqinida bo'lgan jangda Shayboniyxon qo'shinlari yengiladi, xonning o'zi ham halok bo'ladi. Taxtga Shayboniyxonning amakisi, Mirzo Ulug'bekning qizi Ro biya Sultonbeginning o'g'li Ko'chkunchixon (1510–1530) chiqdi. Biroq shayboniy sultonlar, beklar jipslashib Ismoilshohga qarshi ku rashish o'rniga Shayboniyxon tirikligidayoq suyurg'ol sifatida taqsim lab berilgan viloyatlar va yerlarga egalik qilish bilan o'ralashib qol dilar, ular o'rtasida o'zaro kelishmovchilik, ziddiyatlar avj oldi. Bun dan foydalangan Ismoilshoh tez orada Xuroson va Xorazm o'lka-larini, Shimoliy Afg'onistonni bosib oladi. Poytaxti Samarqand bo'lgan Movarounnahrda esa shayboniylar hukmronligi saqlanib qoladi. Movarounnahrda yuz yilgacha davom etgan Shayboniylar davri-da ham tinchlik bo'lmadi, qirg'inborot urushlar, o'zaro ichki kurash-lar davom etdi. Buxoro viloyati noibi bo'lib kelgan Ubaydullo sulton 1533-yilda Shayboniylar davlatining oliy hukmdori etib ko'tarila di. Ubaydulla sulton Samarqanddagi Ko'ch kunchixon avlodlari qarshi-ligi sababli oliy hokimiyatni Buxoroda turib boshqaradi va Buxoro-ni davlat poytaxti deb e'lon qiladi. Shay boniy Ubaydullaxon (1533–1540) davrida Buxoroning mavqeyi ham siyosiy, ham iqtisodiy jihat-dan kuchaydi. Shu tariqa, Shayboniylarning Movarounnahrda tash-kil etgan davlati Buxoro xonligi, deb atala bosh landi. 1583 y. Abdullaxon o'zini barcha o'zbeklarning xoni deb e'lon qildi. Bu paytga kelib Abdullaxon deyarli butun Markaziy Osiyo erlarini o'z qo'l ostiga birlashtirishga muvaffaq bo'lgan edi. 1595 y. Xorazm ham Abdullaxon II mulklariga qo'shib olindi. 1598 yilda Abdullaxon II vafot etgach uning o'g'li Abdulmumin uzoq vaqt hokimiyatni saqlab qalolmadi va 1599 yilda hokimiyat boshqa sulola vakillari qo'liga o'tdi. XVI asrning oxirlaridan, aniqrog'i 1599 yildan boshlab Markaziy Osiyoda yangi sulola Ashtroxoniylar sulolasi hukmronligi boshlandi. Bu sulolaning asoschisi Chingiziylar avlodidan bo'lgan Jonibek Sulton edi. Uning ajdodlari Oltin O'rda inqirozidan keyin Ashtroxonga hukmronlik qilinshgan. Ashtarxoniylardan Imomqulixon Buxoro hududini ancha kengaytiradi. Jumladan, Toshkent va Taroz shahri xonlik ixtiyoriga qaytarib olinadi. Imomqulixondan so'ng taxtga kelgan Nodir Muhammad va Abdulazizxon davrida saltanat chegaralari katta o'zgarishga uchramaydi. Faqatgina 1680 yilda, jung'orlar hujumidan so'ng halokatga yuz tutgan Qoshg'ar xonligining ba'zi hududlari Buxoro xonligi tomonidan egallab olinadi. Abdulazizxondan so'ng taxtga kelgan Subhonqulixon davrida chegaralardagi eng katta

o'zgarish Xiva xonligining yana Buxoro xonligiga qo'shib olinishi bo'ladi. Biroq bu uzoq davom etmaydi. Subhonqulixonidan so'ng Buxoro taxtiga o'tirgan Ubaydullaxon II mustaqillikka intilayotgan viloyatlar bilan to'xtovsiz kurash olib boradi. Bir tomondan Balx hokimi Mahmud qatag'on, boshqa tomondan Farg'onadagi ming sulolasiga qarshi kurashgan Ubaydullaxon 1711 yil fitna qurboniga aylanadi. Uning o'limidan so'ng Balx va Farg'ona vodiysi Buxoro xonligi tarkibidan chiqib ketadi. 1740 yili Buxoro va Xivaga Eron shohi Nodirshoh bostirib kiradi va har ikki xonlikni o'ziga bo'ysundiradi. Eronga qaramlik 1747 yilga qadar davom etadi. Shu yili Nodirshoh o'ldirilganidan so'ng Buxoroda katta mavqega erishgan o'zbeklarning mang'it qabilasi yetakchisi Muhammad Rahimbiy ashtarxoni hukmdor Abulfayzxonni o'ldiradi. Muhammad Rahimbiy taxtga ashtarxoniylar vakillari bo'lgan qo'g'irchoq hukmdorlarni o'tqaza boshlaydi. Nihoyat 1756 yili Muhammad Rahimbiy Buxoroni to'liq o'z boshqaruviga oladi, biroq an'anaga ko'ra faqatgina chingiz naslidan bo'lgan insonlarga xon rutbasini olishi mumkinligi bois Muhammad Rahimbiy o'zini xon emas «Amir ul-mo'miniyn» deb e'lon qiladi. Shu tariqa, Buxoro xonligi Buxoro amirligiga aylanadi. Mang'itlardan amir Shohmurod nafaqat o'z adolatparvarligi, balki harbiy muvaffaqiyatlari bilan ham alohida ajralib turadi. Amir Shohmurod 1788 yili Buxoro tarkibidan chiqib ketgan Afg'oniston shimolidagi yerlarni amirlikka qaytaradi, Marv ham yana Buxoro mulkiga aylanadi. Afg'oniston shimolidagi yerlar (Chor viloyat: Andxo'y, Shibirg'on, Saripul va Aqcha) 1845 yilga qadar Buxoro amirligi tasarrufida qoladi. 1868 yil Rus imperiyasi qo'shinlari Buxoroga bostirib kiradi. Buxoro amiri Muzaffar xonlik mudofaasini uyushtira olmaydi va Buxoro Rossiya protektorati (vassal) bo'lib qoladi. 1873 yil 28 sentabr kuni amir Muzaffar Turkiston general-gubernatori fon Kuafmanning «do'stlik» haqidagi shartnomasiga qo'l qo'yadi. Shartnomaga ko'ra, Buxoro amirligining Samarqand, Urgut, Jizzax, Panjikent va Kattaqo'rg'on bekliklari Rossiya tarkibiga o'tadi. Buxoro amirligi tashqi siyosatda Rossiyaga qaram bo'lsa-da, ichki siyosatda birmuncha mustaqillikka ega bo'ladi. 1917 yil Rossiyadagi fevral inqilobidan so'ng Buxoroda ham amir hokimiyatiga qarshi harakatlar boshlanadi. Ammo amir Olimxon qulay fursatdan foydalanib davlatni mustahkamlash borasida yetarli ishlarni amalga oshirmaydi va 1920 yil 30 avgust kuni bolsheviklar hujumidan so'ng Buxorodan qochib ketadi. Bolsheviklar ta'siri ostida Buxoro Xalq sovet respublikasi tuziladi. Bu davlat 1924 yil 27 oktyabrda tugatiladi va uning hududi O'zbekiston SSR va Tojikiston ASSR tarkibiga kiritiladi. Shu bilan to'rt yuz yilga yaqin hukm surgan Buxoro davlati xotima topadi.

Shayboniylar davrida hokimiyat tepasida xon turardi. Davlat bir necha viloyatlarga bo'lingan bo'lib, ularga sultonlar boshchilik qilar edi. Poytaxt Samarqand shahri edi va Abdullaxon (1533-1539) davrida Buxoroga ko'chirildi. Shayboniylar davlati, ayniqsa, Abdullaxon II davrida chet davlatlar bilan siyosiy aloqalarini

kengaytiradi. Shayboniylar davlatida xo'jalikning asosi dehqonchilik bo'lib, dehqonlar asosiy ishlab chiqaruvchi kuch edi. Er egaligi munosabatlari eskicha qolib, erlarning asosiy qismi davlat erlari bo'lib, uning egasi davlat boshlig'ixondir.

Xorazm XV asr oxiri –XVI asr boshida temuriy Sulton Husayn Boyqaro boshliq davlatning bir qismi edi. 1505-yilda Muhammad Shayboniy-xon qo'shinlari Xorazmni egalladi va qo'ng'i rot urug'idan Kepakbiy Xorazmga hokim etib tayinlanadi. Eron shohi Ismoil bilan jangda Muhammad Shayboniyxon halok bo'lganidan keyin Xorazm Ismoil-shoh tomonidan zabt etiladi. Ismoilshoh Xorazmni o'z davlati tasarrufi ga kiritgach, Vazir, Urganch va Xiva shaharlarini boshqarish uchun 3 ta dorug'a (hokim) tayinlaydi. Xorazmda Ismoilshoh hukmronligi uzoqqa bormadi. Sal o'tmay, Ismoil shoh hukmronligiga qarshi harakat boshlanadi. Bu harakatga Vazir shahri qozisi Umar qori va Sayid Hisamiddin yetakchilik qiladi. Ular Shayboni avlodidan bo'lgan Berka sultonning o'g'li Elbarsxon-ga murojaat qilib, xon bo'lishni taklif qiladilar. Elbarsxon 1511-yil-da qo'shin bilan kelib Vazir shahrini egallaydi. 1511–1512-yil lardagi janglar natijasida, Urganch, Xiva, Hazorasp Ismoilshoh qo'shinlari dan tozalanadi, Xorazmning mustaqilligi tiklanadi. Xorazmda Elbars xon hokimiyati o'rnatiladi. Shunday qilib, 1512-yildamustaqil Xiva xonligi tashkil topadi, Elbarsxon uning birinchi xoni bo'ladi. Xivada shayboniylar sulolasi hukmronligi 1770-yilgacha davom etadi. Xiva xonligi poytaxti Urganch edi. Xiva xonligi juda ko'p vaqt ichki urushlar girdobida qoladi. Bu Xiva xonligida markaziy hukumatning kuchli bo'lmagani bilan izohlanadi.

Xiva xonligi markazlashgan hokimiyat va eng katta chegaralarga o'zbeklarning qo'ng'iro'q urug'idan chiqqan (qo'ng'iro'q urug'i Xiva taxtini 1770 yil qo'lga kiritgan edi) Muhammad Rahimxon I davrida erishadi. Muhammad Rahimxon Xivaga doimiy bo'ysunuvchi hududlardan tashqari Sirdaryoning quyilish qismi va qoraqalpqlarning Qo'ng'iro'q hududlarini bo'ysundiradi. Shuningdek, Rahimxon 1820 yil Marvni Buxorodan tortib olishga muvaffaq bo'ladi. Xiva ham 1873 yil Buxoro kabi Rossiya protektoratiga aylanadi. Xiva xonligi va Rossiya o'rtasida imzolangan Gandimiyon shartnomasiga ko'ra Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlar Rus imperiyasi ixtiyoriga o'tadi. 1880-1885 yillarda olib borilgan yurish natijasida turkman qabilalari ham Rossiya tarkibiga o'tgach, Xiva tasarrufida faqatgina Amudaryoning chap qirg'og'idagi yerlar qoladi. Xiva xonligi ham Buxoro kabi 1920 yilda Xiva Xalq sovet respublikasiga aylantiriladi va 1924 yilda uning yerlari Qoraqalpog'iston, Turkmaniston va O'zbekiston SSR tarkibiga qo'shib yuboriladi.

XVI asrning oxirlaridan, aniqrog'i 1599 yildan boshlab Markaziy Osiyoda yangi sulola Ashtroxoniylar sulolasi hukmronligi boshlandi. Bu sulolaning asoschisi Chingiziylar avlodidan bo'lgan Jonibek Sulton edi. Uning ajdodlari Oltin O'rda

inqirozidan keyin Ashtraxonga hukmronlik qilinshgan. Ashtarxoniylardan Imomqulixon Buxoro hududini ancha kengaytiradi. Jumladan, Toshkent va Tarozi shahri xonlik ixtiyoriga qaytarib olinadi. Imomqulixonidan so'ng taxtga kelgan Nodir Muhammad va Abdulazizxon davrida saltanat chegaralari katta o'zgarishga uchramaydi. Faqatgina 1680 yilda, jung'orlar hujumidan so'ng halokatga yuz tutgan Qoshg'ar xonligining ba'zi hududlari Buxoro xonligi tomonidan egallab olinadi. Abdulazizxondan so'ng taxtga kelgan Subhonqulixon davrida chegaralardagi eng katta o'zgarish Xiva xonligining yana Buxoro xonligiga qo'shib olinishi bo'ladi. Biroq bu uzoq davom etmaydi. Subhonqulixonidan so'ng Buxoro taxtiga o'tirgan Ubaydullaxon II mustaqillikka intilayotgan viloyatlar bilan to'xtovsiz kurash olib boradi. Bir tomondan Balx hokimi Mahmud qatag'on, boshqa tomondan Farg'onadagi ming sulolasiga qarshi kurashgan Ubaydullaxon 1711 yil fitna qurboniga aylanadi. Uning o'limidan so'ng Balx va Farg'ona vodiysi Buxoro xonligi tarkibidan chiqib ketadi. 1740 yili Buxoro va Xivaga Eron shohi Nodirshoh bostirib kiradi va har ikki xonlikni o'ziga bo'ysundiradi. Eronga qaramlik 1747 yilga qadar davom etadi. Shu yili Nodirshoh o'ldirilganidan so'ng Buxoroda katta mavqega erishgan o'zbeklarning mang'it qabilasi yetakchisi Muhammad Rahimbiy ashtarxoniylar hukmdori Abulfayzxonni o'ldiradi. Muhammad Rahimbiy taxtga ashtarxoniylar vakillari bo'lgan qo'g'irchoq hukmdorlarni o'tqaza boshlaydi. Nihoyat 1756 yili Muhammad Rahimbiy Buxoroni to'liq o'z boshqaruviga oladi, biroq an'anaga ko'ra faqatgina chingiz naslidan bo'lgan insonlarga xon rutbasini olishi mumkinligi bois Muhammad Rahimbiy o'zini xon emas «Amir ul-mo'miniyn» deb e'lon qiladi. Shu tariqa, Buxoro xonligi Buxoro amirligiga aylanadi. Mang'itlardan amir Shohmurod nafaqat o'z adolatparvarligi, balki harbiy muvaffaqiyatlari bilan ham alohida ajralib turadi. Amir Shohmurod 1788 yili Buxoro tarkibidan chiqib ketgan Afg'oniston shimolidagi yerlarni amirlikka qaytaradi, Marv ham yana Buxoro mulkiga aylanadi. Afg'oniston shimolidagi yerlar (Chor viloyat: Andxo'y, Shibirg'on, Saripul va Aqcha) 1845 yilga qadar Buxoro amirligi tasarrufida qoladi.

Buxoro xonligi ichki kurashlar, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi sababli XVIII asr boshlarida ikkiga bo'linib ketdi. Ashtarxoniylar hukmdorxonligining zaiflashuvi oqibatida Farg'ona vodiysiga uning shimolida tashkil topgan Jung'orlar davlati tez-tez bosqin uyushtirib, yurtni talon-taroj qila boshladi. Bunday vaziyat Farg'onadagi ichki kuchlarning birlashuviga, mustaqil davlat tuzishga intilishini kuchaytirdi. Farg'ona vodiysining hududiy yaxlitligi va iqtisodiy imkoniyatlari uning Buxoro xonligidan ajralib chiqishi bilan qayta omil bo'lib xizmat qildi. Chust yaqinidagi Chodak qishlog'ida yashovchi xo'jalar jamoasi (din peshvolari)ning mavqeyi XVIII asr boshlaridayoq Farg'ona-da ancha kuchayib, 1709-yilda o'z yermulklarini mustaqil deb e'lon qiladi va vodiya hokimiyatini qo'lga olishga intiladilar. Biroq, ularning hokimiyati boshqa urug'-qabilalar tomonidan tan olinmadi. Bir guruh

harbiy zodagonlar Rishtonda qo'zg'olon ko'tarib, Buxoro xon-ligi tasarrufidagi Farg'ona hoki mi Xo'ja Ashirqulni o'ldiradilar. 1709-yilda Qo'qon atrofida yashab turgan o'zbek qabila la ridan biri – minglar hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar va o'z yetakchisi Shohruxbiyni hokimiyat tepasiga ko'taradilar. Shu tariqa, Qo'qon xon ligi tashkil topadi, o'zaro ichki kurashlar botqog'iga botib qolgan Buxoro xoni Ubaydullaxon o'ziga qarashli hududning ajralib chiqib, alohida davlat tuzishiga qarshilik ko'rsata olmadi. Qo'qon xonligida ming urug'i sulolasi 1876-yilgacha hukmronlik qiladi. Qo'qon shahri chetida joylashgan Tepaqo'rg'on Qo'qon xoni Shohruxbiyning qarorgohiga aylantirildi. Tepaqo'rg'onda mustahkam qal'a, bozor va aholi yashaydigan mahallalar qurildi. Qo'qon xonligi tarkibiga Farg'ona vodiysidan tashqari, Sharqiy Turkistonning ba'zi qismlari ham kiradi. Qo'qon xonligi hududi Olimxon davridan tez kengaya boshlaydi. Olimxon Toshkent, Sayram va Xo'jand shaharlarini xonlik tarkibiga qo'shib oladi. Uning ukasi Umarxon esa bir necha yuz yillardan beri Buxoro hukmdorlari qo'l ostida bo'lgan Turkiston shahrini Qo'qon xonligiga bo'ysundiradi. Shuningdek, Umarxon Sirdaryo bo'yi yerlarini Buxorodan tortib olishga muvaffaq bo'ladi. Qo'qon xonligining keyingi tarixi turli guruhlarining o'zaro kurashlaridan iborat bo'ladi va xonlik qayta markazlashgan kuchli davlatga aylana olmaydi. Bu esa xonlikning Rossiya imperiyasi uchun tayyor o'ljaga aylanishiga olib keladi. Qattiq qarshilikka qaramay, Xo'jand egallanishi bilan Buxorodan uzilib qolgan Xudoyorxon 1868 yil Qo'qonni Rossiyaga qaram davlatga aylantiruvchi sulhni imzolashga majbur bo'ladi. Ammo Buxoro va Xiva bilan urush yakunlangach hamda Qo'qonda rus hukmronligiga qarshi harakat boshlangach, ruslar xonlikni butkul tugatishga qaror qiladi. 1876 yili Qo'qon xonligi davlat sifatida butunlay tugatiladi.

XVI asrdan boshlab Markaziy Osiyoda yangi feodal er egaligi tanho, kichik xizmatkorlarda beriladigan erlar paydo bo'ldi. Feodal er egaligining alohida ko'rinishini vaqf erlar tashkil qilgan. Shayboniylar davridagi aholining asosiy qismini dehqonlar, yarim ko'chmanchilar va qisman ko'chmanchi chorvadorlar tashkil etardi. Shayboniylar davlatida dehqonchilikdan tashqari shahar xo'jaligi ham alohida o'rin tutadi. Samarqand Buxoro, Toshkent Markaziy Osiyoning siyosiy, iqtisodiy, madaniy markazi bo'lib qolaverdi. Bu davrga kelib iqtisodiy va madaniy yuksalish natijasida Toshkentning mavqei oshdi. Barakxon madrasasi (Hozirgi mavarounnaxr musulmonlari markazi yoki Xastimom), Ko'koldosh madrasasi qurildi.

XVI asr shaharlarida xunarmandchilik rivojlanib, uning maxsuloti keng ommaning talablarini qondirishga qaratildi. Shayboniylar davlatida kuchli rivojlangan xo'jalik sohasi to'qimachilik bo'ldi. Samarqandda qog'oz ishlab chiqarila boshlandi. Qog'oz sifati shunchalar yuqori ediki bu haqda Bobur Jaxonda eng yaxshi qog'oz Samarqandda tayyorlangan, deb etadi. Shayboniylar davrida dehqonchilik, xunarmandchilikning umuman, shaharlar hayotining rivojlanishiga Markaziy Osiyo

xonliklarining tashqi va ichki savdo halqaro aloqalarining kengayishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Markaziy Osiyo xonliklarining Hindiston davlati, Turkiya va Rossiya bilan iqtisodiy hamda diplomatik aloqalari rivojlandi. Buxoro, Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlarda XVI asrda hayot yuksak darajada bo'lib, ular siyosiy, iqtisodiy markaz bo'libgina qolmay, balki madaniy turmush o'chog'i ham edi. Shayboniylar ko'plab yangi binolar qurib, ularni madrasa va machitlar ixtiyoriga topshirdilar. Abdullaxon II davrida 500dan ortiq har xil binolar qurilgan. XVI asr boshlarida Dashti-Qipchoq o'beklarining Movaraunnahrga kirib kelishi bilan o'zbek xalqi ajdodlariga yana bir qancha qabilalar kelib qo'shildi va O'zbek degan nomga ega bo'ldi.

O'zbekiston hududida xonliklar davri tarixiy jarayonlarning murakkab va muhim bosqichi bo'lib, ushbu davrda hududiy bo'linish, ichki nizolar va siyosiy tarqoqlik kuchaygan edi. Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklari o'rtasida doimiy raqobat va hududiy nizolar iqtisodiy, siyosiy hamda ijtimoiy taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, bu davrda milliy madaniyat, me'morchilik va hunarmandchilik ham o'z taraqqiyot bosqichini boshdan kechirdi. Xonliklar o'rtasidagi doimiy ziddiyat va markazlashgan davlatning yo'qligi hududiy barqarorlikka putur yetkazdi va tashqi kuchlar uchun imkon yaratdi.

Xulosa qilib aytganda, xonliklar davri tariximizda mustaqillik va yagona davlat tuzish zaruratini yaqqol ko'rsatgan davrlardan biri bo'lib, keyinchalik umumxalq birligi g'oyasining shakllanishiga asos bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Berdiyev Abduvali „XVIII-XIX asrlarda O'rta Osiyo xonliklarining tashqi diplomatik aloqalari tarixi"-Toshkent, 2003
2. Xudoyqulov To'liqin „Markaziy osiyo davlatlarining boshqaruv tarixi" (markaziy mahalliy harbiy diniy hokimiyat)-Toshkent:, O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI, 2003
3. Д. А. Алимова Э.В. Ртвеладзе, Узбекистон давлатчилиги тарихи " Т:„ШАРК", 2001
4. Б.Ж.Эшов „Узбекистон тарихи: II китоб (XIV аср урталаридан-XIX аср иккинчи ярмигача". Дарслик А.А.Одилов.-Тошкент:„NIF MSH", 2024.
5. Зиёдулла Мукимов, „Шайбонийлар давлати ва ҳукуки (тврхий ҳукукий тадқиқот)"-Тошкент, „Адолат".-2007.
6. Н.М.Мухаммедов, О.Т.Хусанов, В.М.Мухаммедов, „o'zbekiston davlati va huquqi tarixi"-TOSHKENT „TASVIR", 2009
7. Q.Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova, „O'zbekiston tarixi"-Toshkent:, IQTISOD-MOLIYA" 2016
8. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/675>
9. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/201>